

# Hududlarda tadbirkorlar bilan ochiq muloqotlar davom etmoqda

// 09 July 2026 yil

<https://special.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/hududlarda-tadbirkorlar-bilan-ochiq-muloqotlar-davom-etmoqda>





**O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan o'tkaziladigan VI ochiq muloqotiga puxta tayyorgarlik ko'rish maqsadida "O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati rahbariyati hududlarda tadbirkorlik subyektlari bilan bevosita uchrashuvlar o'tkazib, sohadagi mavjud holat, muammo va takliflarni o'rganmoqda.**





Navbatdagi ishchi tashriflar doirasida "O'zkimyosanoat" AJning mas'ul xodimlari Farg'ona va Namangan viloyatlarida faoliyat yuritayotgan kimyo sanoati mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalarga tashrif buyurib, ishlab chiqarish jarayonlari, amalga oshirilayotgan yangi investitsiya loyihalari hamda korxonalarining bugungi faoliyati bilan yaqindan tanishdi.

**Uchrashuvlar davomida tadbirkorlar bilan ochiq muloqot o'tkazilib, ishlab chiqarishni kengaytirish, investitsiya loyihalarini amalga oshirish jarayonida yuzaga kelayotgan muammo va takliflar atroficha o'rganildi.**





Shuningdek, ularni hal etish bo'yicha tegishli takliflar ishlab chiqish hamda mutasaddi tashkilotlar bilan hamkorlikda amaliy choralar belgilash masalalari muhokama qilindi.

**Xususan, Farg'ona viloyatidagi "SWISSAGRO" MCHJ, "VODIY KIMYO SANOAT" MCHJ, "ECO BIOSTAR" MCHJ hamda Namangan viloyatidagi "IFODA AGRO KIMYO HIMOYA" MCHJ XK faoliyati o'rganildi.**

Bu kabi muloqotlar tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash, sohadagi mavjud muammolarni joyida aniqlash va ularning yechimi yuzasidan amaliy choralarni belgilash, shuningdek, kimyo sanoatida yangi investitsiya loyihalarini samarali amalga oshirishga xizmat qiladi.